



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafojeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	

Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodik Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi	267
Moxira Niyozqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
Vohidova Ibodat Hurmatullayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	277
Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
Xusanova Dilraxon Botiraliyevna	
Talabalarning jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
Zuxriddin Nasibovich Boboshev	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich	
Использование чат-ботов в образовательном процессе	294
Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
Садикова Дилафруз Хусановна	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
Санакулова Нигора	



JISMONIY TARBIYANING O'QUVCHILARNING KOGNITIV RIVOJLANISHIGA TA'SIRI (ANDIJON SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABI TAJRIBASI ASOSIDA)

Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich
Andijon shahridagi Prezident maktabi
Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri Prezident maktabi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda jismoniy faollikning o'quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur hamda akademik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, jismoniy va intellektual rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya o'qituvchisining roli tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari muntazam jismoniy mashg'ulotlarning o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirishdagi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, kognitiv rivojlanish, akademik ko'rsatkichlar, jismoniy faollik, Prezident maktabi, sog'lom turmush tarzi, o'quvchilar.

Abstract: This article explores the impact of physical education on students' cognitive development using the example of the Presidential School in Andijan. The study analyzes how regular physical activity contributes to improved academic performance, attention, memory, and thinking skills among students. Particular attention is given to the relationship between physical and intellectual development and the role of physical education teachers in promoting a healthy lifestyle. The findings confirm that systematic physical training is a key factor in enhancing students' cognitive potential.

Key words: physical education, cognitive development, academic performance, physical activity, Presidential School, students, healthy lifestyle.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние физического воспитания на когнитивное развитие учащихся на примере Президентской школы города Андижана. Анализируется, как регулярная физическая активность способствует улучшению академической успеваемости, повышению концентрации внимания, памяти и мыслительной активности учащихся. Особое внимание уделяется взаимосвязи между физическим и интеллектуальным развитием, а также роли учителя физической культуры в формировании здорового образа жизни у школьников. В исследовании использованы наблюдательные и аналитические методы, подтверждающие положительное влияние физической активности на когнитивные способности обучающихся.

Ключевые слова: физическое воспитание, когнитивное развитие, академическая успеваемость, физическая активность, Президентская школа, учащиеся, здоровый образ жизни.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning faqatgina jismoniy salomatligini emas, balki ularning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kognitiv rivojlanish – ya'ni tafakkur, xotira, diqqat, idrok, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatlarining shakllanishi – o'quvchilarning o'quv faoliyati va shaxs sifatida kamol topishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar jismoniy faollik nafaqat organizmning sog'lom rivojlanishini ta'minlashini, balki miya faoliyatini faollashtirish, asab tizimi barqarorligini mustahkamlash hamda bilish jarayonlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlamoqda. Jismoniy mashqlar jarayonida qon aylanishining yaxshilanishi, miya to'qimalarining kislorod bilan ta'minlanishi va neyronlararo bog'lanishlarning faollashuvi o'quvchilarning diqqatni jamlash, axborotni tez va samarali qabul qilish hamda xotirada saqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.



Shuningdek, jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarda intizom, irodaviy sifatlar, mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l topish kabi kognitiv hamda ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'yin texnologiyalari, jamoaviy sport mashqlari va harakatli o'yinlar orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi hamda ijodiy tafakkuri yanada rivojlanadi. Shu sababli, jismoniy tarbiyani ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish, uning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'sirini ilmiy asosda o'rganish va amaliyotga joriy etish bugungi kun pedagogikasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu o'quvchilarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

N. Y. Sultanova o'zining "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" kitobida jismoniy mashqlar va sportning o'quvchilarning umumiy rivojlanishidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Muallifga ko'ra, jismoniy tarbiya nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllantirish, balki o'quvchilarning intellektual va psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U sport bilan shug'ullanadigan o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri va diqqat qobiliyatining yuqoriligi haqida ilmiy dalillar keltiradi ^[1,25].

R. H. Kadirov "Jismoniy tarbiya va sport faoliyatini ilmiy tadqiq qilish" o'quv qo'llanmasida jismoniy mashg'ulotlarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi masalasini ko'taradi. Unga ko'ra, jismoniy tarbiya darslari va qo'shimcha sport mashg'ulotlari o'quvchilarning diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi hamda miyaning o'quv jarayonida yanada samarali ishlashga yordam beradi.

Xolboyevning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, sport to'garaklarida muntazam ishtirok etuvchi o'quvchilar darslardagi faolligi va baholari bilan ajralib turadi ^[2,20].

A. Qosimov "O'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida jismoniy mashg'ulotlarning o'rni" nomli ilmiy maqolasida jismoniy faollikning o'quvchilarning ruhiy holatiga ta'sirini o'rganadi. Muallif tomonidan o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlarga ko'ra, jismoniy faolligi yuqori bo'lgan o'quvchilar stress va depressiyaga kamroq uchraydi. Shu bilan birga, ular o'quv jarayonida faolroq qatnashib, murakkab mavzularni tezroq o'zlashtiradi ^[3,2]. Ushbu maktablarda jismoniy tarbiya nafaqat sport darslari orqali, balki to'garak mashg'ulotlari va sog'lom turmush tarzi bo'yicha targ'ibotlar orqali ham olib boriladi. Bu esa o'quvchilarning akademik natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ta'sirini aniqlash va ilmiy asoslashga qaratilgan bo'lib, unda pedagogik, psixologik hamda statistik yondashuvlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi nazariy metodlar qo'llanildi: ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; jismoniy tarbiya hamda kognitiv rivojlanish masalalariga oid xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni solishtirish; mavjud konsepsiya va modellarni tahlil qilish orqali mavzuning nazariy asoslarini shakllantirish. Ushbu metodlar tadqiqot muammosining mohiyatini aniqlash hamda ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi. Amaliy bosqichda empirik metodlardan foydalanildi. Jumladan, pedagogik kuzatuv orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning faolligi, diqqatni jamlash darajasi, topshiriqlarni bajarish tezligi va mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari o'rganildi.

Suhbat va so'rovnomalar metodlari yordamida o'quvchilar hamda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining jismoniy mashqlarning o'quv faoliyatiga ta'siri haqidagi qarashlari aniqlandi. Jismoniy tarbiya va akademik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik aniq bo'lib, ta'lim jarayonida akademik bilimlar bilan bir qatorda jismoniy va hissiy ko'nikmalarga ega bo'lgan sog'lom, baxtli va muvaffaqiyatli o'quvchilarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o'quvchilarning jamoada ishlash hamda liderlik qobiliyatlari sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Buni o'quvchilarning joriy o'quv yili davomida o'tkazilgan ko'plab sport musobaqalaridagi faol ishtiroki va erishilgan natijalari orqali kuzatish mumkin. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning Andijon filialida bo'lib o'tgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilari o'rtasidagi voleybol musobaqasida 1-o'rin, "Rahbar kubogi" sport musobaqasi hamda "Besh muhim tashabbus - kamolot sari yo'l" shiori ostida Andijon shahridagi Prezident maktabida tashkil etilgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilari o'rtasidagi futbol musobaqasida ham faxrli 1-o'rin qo'lga kiritildi (1-rasm).



1-rasm: Andijon shahridagi Prezident maktabi o'quvchilarining turli musobaqalardagi ishtiroki

Ushbu musobaqalarda jamoalar shaxmat, stol tennisi, mini futbol va voleybol sport turlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar. Mazkur ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Ibragimov Shuxratbek o'zining kasbiy mahorati, fan bo'yicha chuqur bilimlari va pedagogik kompetensiyalarini namoyon etib, attestatsiya jarayonida yuqori natijalarga erishdi. U o'z fanidan o'tkazilgan attestatsiya sinovlarida 90 ball to'plab, oliy toifani muvaffaqiyatli himoya qildi. Attestatsiya natijalariga ko'ra, jismoniy tarbiya o'qituvchisiga 70 foizlik ustama belgilandi. Bu holat davlat tomonidan pedagog kadrlar mehnatini munosib rag'batlantirish, ularning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliy ifodasi hisoblanadi. Ushbu yutuq nafaqat o'qituvchining shaxsiy mehnati va izlanishlari samarasidir, balki ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya faniga qaratilayotgan e'tibor hamda sog'lom avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan tizimli ishlarning natijasi sifatida baholanadi. Mazkur muvaffaqiyat boshqa pedagoglar uchun ham ibrat bo'lib, ularni o'z ustida muntazam ishlashga va kasbiy mahoratini oshirishga undaydi.

Shunday qilib, har bir maktab ma'muriyati yuqorida ta'kidlangan jismoniy tarbiya va akademik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklardan unumli foydalanish uchun yaxshi tuzilgan va yetarli soat hajmiga ega bo'lgan jismoniy tarbiya o'quv dasturlarini joriy etishi zarur. Ushbu o'quv dasturlari mazmunan keng qamrovli bo'lishi, boshqa fanlar bilan muvozanatni ta'minlashi hamda maktablardagi o'quvchilarning ehtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Turli xil sport turlari – jamoaviy sportlardan tortib tennis, gimnastika va zarur hollarda suzishgacha – o'quvchilarning turli qiziqishlari va jismoniy qobiliyatlarini qondirishi lozim. Bu esa barcha o'quvchilarning sog'lom rivojlanishini, jismoniy faolligini oshirishni hamda turli xil qobiliyatlarning izchil shakllanishini ta'minlaydi.

1-jadval: Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri

№	Kognitiv rivojlanish komponentlari	Jismoniy tarbiya vositalari	Qo'llaniladigan metodlar	Kutilayotgan natijalar
1	Diqqatni jamlash	Harakatli o'yinlar, koordinatsion mashqlar	Musobaqaviy metod, o'yin texnologiyasi	Diqqatning barqarorlashuvi, tezkorlikning oshishi
2	Xotira	Harakatlarni ketma-ket bajarish mashqlari	Takrorlash, amaliy mashq	Qisqa va uzoq muddatli xotiraning rivojlanishi
3	Mantiqiy fikrlash	Strategik o'yinlar (estafeta, jamoaviy sport)	Muammoli vaziyat yaratish	Tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmasi shakllanadi
4	Tezkor qaror qabul qilish	Sport o'yinlari (futbol, voleybol)	Jamoaviy ish, interfaol metod	Qaror qabul qilish tezligi oshadi
5	Tafakkur va idrok	Murakkab harakatlar kombinatsiyasi	Ko'rgazmali-amaliy metod	Harakatlarni anglash va muvofiqlashtirish kuchayadi
6	Stressga chidamlilik	Jismoniy chiniqtirish mashqlari	Tizimli mashg'ulotlar	Psixologik barqarorlik ta'minlanadi
7	O'quv motivatsiyasi	Qiziqarli va innovatsion mashqlar	Rag'batlantirish, baholash	O'qishga qiziqish va faollik oshadi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'quvchilarning kognitiv rivojlanishida muhim pedagogik omil hisoblanadi. Jismoniy faollik o'quvchilarning diqqatini jamlash, xotira hajmini oshirish, idrok jarayonlarini faollashtirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, jismoniy tarbiya darslarini mazmunan boyitish, harakatli o'yinlar hamda kognitiv faoliyatni talab etuvchi mashqlarni qo'llash orqali o'quvchilarning intellektual faolligi va o'quv samaradorligi oshadi. Ayniqsa, muntazam va tizimli tashkil etilgan jismoniy mashg'ulotlar o'quvchilarning stressga chidamliligini kuchaytirib, asab tizimi barqarorligini ta'minlaydi, bu esa bilish jarayonlarining samarali kechishiga zamin yaratadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahorati, pedagogik yondashuvi va innovatsion faoliyati o'quvchilarning kognitiv rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishi isbotlandi.

Demak, jismoniy tarbiya ta'lim tizimida faqat sog'lomlashtiruvchi fan sifatida emas, balki shaxsning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi muhim vosita sifatida qaralishi zarur. Shu nuqtai nazardan, jismoniy tarbiya darslarini kognitiv yo'naltirish, ya'ni dars jarayoniga diqqat, xotira va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar, koordinatsion harakatlar hamda intellektual o'yinlarni tizimli ravishda joriy etish; fanlararo integratsiyani kuchaytirish orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini matematika, ona tili va tabiiy fanlar bilan uyg'unlashtirish; jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish maqsadida kognitiv rivojlanishga yo'naltirilgan metodikalar bo'yicha malaka oshirish kurslari va seminar-treninglar tashkil etish; shuningdek, o'quvchilarning kognitiv rivojlanish darajasini muntazam monitoring va diagnostika qilish hamda olingan natijalar asosida dars jarayonini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Y. Sultanova. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi: o'quv qo'llanma. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdoni, 2023.
2. R.H. Kadirov. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatini ilmiy tadqiq qilish: o'quv qo'llanma. Toshkent: Sadriddin Salim Buxoriy, 2018. 260 b.
3. Qosimov, A. (2020). O'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida jismoniy mashg'ulotlarning o'rni. Ilmiy maqola. <https://scholar.google.com>
4. Karimov, I. (2017). Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya va aqliy faollikning o'zaro bog'liqligi. Ilmiy maqola. <https://scholar.google.com>
5. Tomporowski, P. D., Davis, C. L., Miller, P. H., & Naglieri, J. A. (2008). Exercise and Children's Intelligence, Cognition, and Academic Achievement. *Educational Psychology Review*, 20(2), 111–131.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekistonda Prezident maktablari tashkil etilishi va ularning ta'lim jarayonida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati to'g'risida"gi PQ-4471-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-oktabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
8. Azimov, I.G. Jismoniy tarbiyaning yosh fiziologiyasi. 2016. 72–73-betlar.
9. Abdullayev, A., Xonkeldiyev, Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Toshkent: O'z DJTI, 2005.
10. To'rayev, J. (2021). Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.